

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

“KELISHILDI”

**Oliy ta'lim tizimi kadrlarini
qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti direktori**

U.Sh. Beginkulov



“TASDIQLAYMAN”

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasi raisi**

A.T. Yusupov



**13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi”
ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihon
D A S T U R I**

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi

Rayosatining 2026-yil “ ” sonli qarori bilan tasdiqlangan

TOSHKENT – 2026

ANNOTATSIYA

“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligi bo’yicha malakaviy imtihon qabul qilish dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim va ilm fan sohasini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari, shuningdek, pedagogika fanini modernizatsiyalashga qaratilgan amaldagi me’yoriy huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan. Mazkur dastur oliy ta’lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash va ilmiy pedagogik salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Malakaviy imtihon dasturining asosiy maqsadi — pedagogika ixtisosligi bo’yicha talabgorning nazariy bilimlari, kasbiy tayyorgarligi va ilmiy salohiyat darajasini kompleks baholashdan iborat. Xususan, imtihon jarayonida talabgorning pedagogika fanining shakllanishi va tarixiy taraqqiyot bosqichlari, yetuk pedagogik ta’limotlar va ularning vakillari, asosiy ilmiy konsepsiyalar, metodologik yondashuvlar, pedagogik g’oyalarning manbalari hamda pedagogika fanining dolzarb nazariy va amaliy muammolari bo’yicha bilimlari aniqlanadi. Shuningdek, dastur talabgordan pedagogik jarayonlarni tahlil qilish, ilmiy xulosalar chiqarish, mavjud pedagogik meros va zamonaviy yondashuvlarni qiyosiy baholash ko’nikmalariga ega bo’lishni, ilmiy adabiyotlar, jumladan, xorijiy ilmiy manbalar va davriy nashrlar bilan mustaqil ishlash, zamonaviy ilmiy tadqiqot metodlari va innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish darajasini namoyon etishni talab etadi. Mazkur dasturda talabgorning pedagogika faniga oid bilimlarini tizimli, chuqur va ilmiy asoslangan holda baholashga, uning ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlik darajasini aniqlashga hamda mustaqil ilmiy izlanishlar olib borish salohiyatini namoyon etishiga xizmat qiladi.

Tuzuvchilar: p.f.d., professor U.Sh. Begimkulov
p.f.f.d. (PhD), dots I.A. Eshmamatov
p.f.d. (DSc), dots Sh.X. Pozilova
p.f.f.d. (PhD), dots M.B. Matnazarova
p.f.f.d. (PhD) N.K. Haqnazarova

Taqrizchilar: p.f.d., professor Z.T. Saliyeva
p.f.d., (DSc). professor L.R. Zaripov

Ushbu dastur institut Ilmiy kengashining 2025-yil 29 dekabrda 4 sonli majlisida tasdiqlangan

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish, intellektual salohiyatli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, ta'lim sifati hamda natijadorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagogika fanining nazariy asoslarini yanada chuqurlashtirishni, shuningdek, milliy va jahon pedagogik merosini tizimli o'rganishni taqozo etadi. Ta'lim sohasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ilg'or pedagogik tajribalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda dasturlar mazkur yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlariga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishni kuchaytirmoqda.

Hozirgi sharoitda ta'limning mazmunini yangilash, o'qitish va tarbiya jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalardan samarali foydalanish, ta'lim sifati monitoringi hamda baholash tizimini takomillashtirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, pedagogik ta'limotlar tarixini o'rganish orqali turli davrlarda shakllangan pedagogik g'oyalar, konsepsiyalar va maktablarning taraqqiyot yo'li, Sharq va G'arb mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari hamda ularning bugungi pedagogik tafakkur rivojiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Bu esa zamonaviy pedagogik muammolarga tarixiy tajriba va ilmiy meros asosida yechim topish, milliy ta'lim modelini boyitish hamda pedagogik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dastur mazmuni pedagogika nazariyasining metodologik asoslari, pedagogikaning asosiy tushunchalari va qonuniyatlari, shaxs rivojlanishi va tarbiyaning ijtimoiy omillari, didaktika: ta'limning maqsadi, mazmuni, tamoyillari, metodlari, shakl va vositalari, o'qitish jarayonini loyihalash va boshqarish, tarbiya nazariyasi: tarbiya yo'nalishlari, metod va shakllari, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish texnologiyalari, pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot, pedagogik innovatsiyalar va ta'limda zamonaviy yondashuvlar, ta'lim sifatini ta'minlash va baholash, pedagogik tadqiqot metodlari, shuningdek, pedagogik ta'limotlar tarixi bo'yicha qadimgi davr, o'rta asrlar, yangi va eng yangi davr pedagogik g'oyalari, Sharq mutafakkirlari hamda jadidlar pedagogik merosi, G'arb va jahon pedagogikasidagi yetakchi ta'limotlar, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar va paradigmalar kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mazkur dastur 13.00.01 – "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligi bo'yicha talabgorlarning nazariy bilimlari, tarixiy-pedagogik manbalarni tahlil qilish ko'nikmalari hamda ilmiy asoslangan xulosa chiqarish va amaliyotga tatbiq eta olish kompetensiyalarini aniqlash va baholashga xizmat qiladi.

"Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligi bo'yicha dasturning maqsad va vazifalari:

Talabgorda pedagogika nazariyasining ilmiy-nazariy va metodologik asoslari, ta'lim va tarbiyaning qonuniyatlari, didaktika hamda tarbiya nazariyasining mazmuni, tamoyillari, metodlari va texnologiyalariga doir bilimlarni shakllantirish, Uchinchi

Renessans poydevorini barpo etish g'oyalari hamda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "O'zbekiston-2030" strategiyasi talablari asosida zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, pedagogik muammolarni tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish kompetensiyalarini shakllantirish, Sharq va G'arb pedagogik tafakkuri taraqqiyoti, milliy pedagogik meros va jadidchilik pedagogik g'oyalarini tizimli o'rganish hamda tarixiy-pedagogik tajribani bugungi ta'lim amaliyotiga tatbiq eta olishni o'rgatishdan iborat.

Tadqiqotchilarning bilim, malaka, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

mazkur ixtisoslikni o'rganish jarayonida tadqiqotchilar pedagogika nazariyasi va pedagogik ta'limotlar tarixiga oid quyidagi pedagogik tushunchalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur:

Tadqiqotchilarning bilimiga qo'yiladigan talablar:

- pedagogika nazariyasining ilmiy-nazariy va metodologik asoslari, asosiy kategoriyalari (ta'lim, tarbiya, rivojlanish, shaxs, faoliyat, kompetensiya va b.) hamda pedagogik jarayon qonuniyatlari;

- didaktikaning asosiy tushunchalari: ta'limning maqsadi, mazmuni, tamoyillari, metodlari, shakllari, vositalari, natijadorlik va baholash mezonlari;

- tarbiya nazariyasi: tarbiyaning yo'nalishlari, tamoyillari, metod va shakllari, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish texnologiyalari;

- zamonaviy pedagogik yondashuvlar (kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, integrativ va b.) hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar mohiyati;

- ta'lim sifati va natijadorligini ta'minlash, monitoring, diagnostika hamda baholashning nazariy asoslari;

- pedagogik tadqiqot metodologiyasi: ilmiy muammo, maqsad-vazifa, faraz, tadqiqot dizayni, metodlar va usullar, ma'lumotlarni qayta ishlash hamda xulosa chiqarish talablari;

- pedagogik ta'limotlar tarixining asosiy bosqichlari, Sharq va G'arb mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, milliy pedagogik meros (jumladan, jadidchilik g'oyalari)ning mazmun-mohiyati;

- ilmiy ishlarni rasmiylashtirish me'yorlari, akademik halollik, iqtibos keltirish va manbalarni rasmiy ko'rsatish talablari.

Tadqiqotchilarning malakasiga qo'yiladigan talablar:

- ta'lim-tarbiya jarayoniga doir muammolarni ilmiy asosda aniqlash, dolzarblikni asoslash va tadqiqot konsepsiyasini ishlab chiqish;

- tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, farazi va metodlarini mantiqan asoslangan tarzda belgilash;

- nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, sistemalashtirish va ilmiy interpretatsiya asosida xulosalar chiqarish;

- pedagogik tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish, tashkil etish, natijalarni tahlil qilish va talqin etish;

- ta'lim amaliyotiga mos metodik tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish;

- tarixiy-pedagogik manbalarni (asliyat, tarjima, ilmiy sharhlar) bilan ishlash, g'oyalar evolyutsiyasini davriy va mantiqiy tahlil qilish;

- ta'lim sifatini baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish hamda amaliyotda qo'llash.

Tadqiqotchilarning ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar:

- bibliografik izlanish olib borish, manbalar bilan ishlash, ilmiy ma'lumotlarni saralash va tizimlashtirish;

- ilmiy matn yozish madaniyati: ilmiy uslub, terminlardan to'g'ri foydalanish, mantiqiy bayon, iqtibos va havolalarni me'yorida keltirish;

- ma'ruza, taqdimot va himoya jarayonida ilmiy natijalarni dalillash, asoslab berish va munozara olib borish;

- raqamli ta'lim resurslari va ilmiy axborot bazalaridan foydalanish, ma'lumotlarni elektron muhitda qayta ishlash;

- jamoa bilan ishlash, ilmiy seminar va konferensiyalarda ishtirok etish, ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- akademik halollik tamoyillariga rioya qilish (plagiatga yo'l qo'ymaslik, mualliflik huquqi va etik me'yorlarga amal qilish).

Tadqiqotchilarning kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

- pedagogika nazariyasi va pedagogik ta'limotlar tarixi bo'yicha asosiy bilimlarga ega bo'lish;

- pedagogik tushunchalar va nazariyalarni tahlil qila olish va izohlash;

- tarixiy-pedagogik manbalarni o'qish, taqqoslash va xulosa chiqarish;

- tadqiqot mavzusini tanlash, dolzarblikni asoslash, maqsad va vazifalarni belgilash;

- tadqiqot metodlarini to'g'ri tanlash va qo'llay olish (kuzatish, suhbat, anketa, test, hujjatlar tahlili, eksperiment va b.);

- olingan natijalarni umumlashtirish va amaliy tavsiyalar berish;

- zamonaviy yondashuv va texnologiyalarni ta'lim amaliyotida qo'llash (kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, raqamli va b.);

- ilmiy muloqot qilish: natijalarni taqdim etish, savol-javob va munozarada ishtirok etish;

- raqamli resurslar va ilmiy bazalardan foydalanish;

- akademik halollikka rioya qilish (plagiatsiz ishlash, manbani to'g'ri ko'rsatish, etik qoidalariga amal qilish).

“Pedagogika nazariyasi va tarixi” ixtisosligi bo'yicha dastur mazmuni

I. Pedagogikaning nazariy metodologik asoslari

Pedagogika fan sifatida: predmeti, obyekti, maqsad-vazifalari, nazariy-amaliy ahamiyati va funksiyalari. Pedagogikaning tayanch atamalari va kategoriyalari: ta'lim, tarbiya, o'qitish-o'rganish, rivojlanish-shakllanish-ijtimoiylashuv. Pedagogik jarayon va pedagogik tizim: metod, vosita, shakl, pedagogik texnologiya, ta'lim natijasi va baholash tushunchalari. Jahon ta'lim makonining birligi: globallashtirish sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi. Zamonaviy pedagogika rivojidagi global tendensiyalar: kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, inklyuzivlik, lifelong learning. Ta'lim natijalari va kriterial baholash: nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar. Raqamli pedagogika: raqamli muhit, raqamli didaktika va ta'lim jarayoniga ta'siri. Antropologik fanlar tizimida pedagogika: integratsiya va interdisciplinar yondashuv. Pedagogika va psixologiya: dialektik bog'liqlik, pedagogik-psixologik muammolar. Pedagogik antropologiya: mohiyat, vazifalar va metodologik asos sifatidagi ahamiyati. Shaxs rivojlanishi: an'anaviy va innovatsion yondashuvlar, farqlar va talqinlar. Shaxs rivojlanish omillari: irsiyat, muhit, tarbiya, faoliyat; shaxs faolligi. O'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlari: motivatsiya, refleksiya, o'zini boshqarish, mustaqil ta'lim. Zamonaviy metodologik yondashuvlar: shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, tizimli, aksiologik, kulturologik, kompetensiyaviy. Pedagogik faoliyat: mazmun-mohiyat, ijtimoiy ahamiyat, kasbiy rol va mas'uliyat. Pedagogik faoliyatning obyektiv va subyektiv jihatlar: standartlar, sillabus, natijalar; o'qituvchi mahorati, qadriyat, kreativlik, refleksiya. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik tadqiqotning mantiqiy tuzilishi. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari. Pedagogika bo'limlari tizimi va o'zaro bog'liqligi: pedagogik bilimning tizimlilik. Pedagogika yutuqlarini amaliyotga joriy etish. Innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlari. Zamonaviy ta'lim tizimi va demokratik tamoyillar. Oliy ta'limdagi amaliy tendensiyalar.

II. Pedagogik ta'limotlar tarixi

Ta'lim tarixi va pedagogik ta'limotlar tarixi: predmeti, vazifalari, manbalari va o'ziga xos metodlari. Tarixiy-pedagogik jarayon. Davrlashtirish muammosi. Tarixiy-pedagogik tahlil tamoyillari: tarixiylik, tizimlilik, obyektivlik, kontekstual yondashuv, manbashunoslik, taqqoslash, izchillik. Eng qadimgi manbalar va ilk ta'lim-tarbiya tajribasi: folklor, mehnat va tarbiya aloqasi, ibtidoiy jamiyat tarbiyasi. Sug'diyona, Baqtriya, Xorazmda ta'lim-tarbiya taraqqiyoti; "Avesto"ning ma'rifiy ahamiyati. O'rxun-Enasoy bitiklari: ma'rifiy-axloqiy g'oyalar. Movarounnahr va musulmon Sharqi Uyg'onish davri: ta'lim-tarbiya taraqqiyoti va xususiyatlari. Muso al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino pedagogik qarashlari. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig": ma'rifat va axloq g'oyalari. Temuriylar davri ta'lim tizimi; Mirzo Ulug'bek va ilm-ma'rifat taraqqiyoti. Alisher Navoiy ta'limiy-axloqiy merosi; Davoniy "Axloq Jaloliy"; Koshifiy qarashlari. XVII-XIX asrlarda xonliklarda maorif. Turkiston

davri. Jadidchilik va yangi usul maktablari: g'oya va amaliyot. Gaspirali, Munavvar Qori, Behbudiy, Avloniy, Hamza, Fitrat: pedagogik qarashlar va faoliyat. XX asr boshlaridan 1941-yilgacha ta'lim islohotlari va pedagogik fikr. Urush va urushdan keyingi davrda ta'lim taraqqiyoti; 70–80-yillar ta'lim tizimi. Mustaqillik davrida ta'lim islohotlari. Jahon pedagogik fikri: Qadimgi Yunon-Rim ta'limi; Sparta va Afina tizimlari. Ya.A. Komenskiy va sinf-dars tizimi; K.D. Ushinskiy pedagogik merosi. XIX asr oxiri–XX asr boshlarida G'arb, AQSh, Rossiyada pedagogik oqimlar va islohotlar. Jahon ta'limidagi zamonaviy tendensiyalarni tarixiy jarayon bilan bog'lash.

III. Tarbiya nazariyasi

Tarbiya tushunchasi: kelib chiqishi, ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida talqini. Tarbiyaning madaniyatshunoslik asoslari: qadriyat, an'ana, milliy-ma'naviy meros. Tarbiyaning mohiyati, mazmuni, maqsad-vazifalari; o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash. Zamonaviy tarbiya maqsadi: demokratik jamiyatda erkin va mas'uliyatli shaxs. Uzlüksiz tarbiya konsepsiyasi: mazmuni va mexanizmlari. Tarbiya jarayonining tuzilishi, bosqichlari va qarama-qarshiliklari. Tarbiya qonuniyatlari: ijtimoiy sharoit, inson tabiati, vosita va sharoit, ta'lim–tarbiya–rivojlanish birligi. Tarbiya tamoyillari: insonparvarlik, tizimlilik, izchillik, individuallik, talab-hurmat birligi, jamoa–shaxs uyg'unligi. Tarbiyaviy o'zaro ta'sir: subyektlilik, pedagogik qo'llab-quvvatlash texnologiyasi. Tarbiya metodlari: mohiyat, tanlash mezonlari, klassifikatsiya. Tarbiya metodlarining amaliy ko'rinishlari: hikoya, suhbat, munozara, ma'ruza; xalq pedagogikasi usullari. Jamoa va tarbiya: jamoaning belgilari, tuzilishi, turlari va pedagogik vazifalar. O'qituvchining pedagogik madaniyati: texnika, texnologiya, muloqot. Bazaviy madaniyat va tarbiyaning yo'nalishlari: aqliy, axloqiy, huquqiy, fuqarolik, vatanparvarlik. Mehnat-iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya va sog'lom turmush madaniyati. Tarbiya jarayonini o'rganish va tashxis: mezonlar, usullar, tarbiyalanganlik darajalari. Oila tarbiyasi: konseptual va huquqiy asoslar, oilaning vazifalari.

IV. O'qitish nazariyasi

O'qitish jarayonining ilmiy asoslari: madaniyatshunoslik, psixologik, etik, fiziologik, ijtimoiy-me'yoriy, raqamli asoslar. Ta'lim jarayonining mohiyati va tuzilishi. O'qitish va o'rganish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi. Bilish faoliyati tuzilishi. O'qitish funksiyalari. Ta'lim, tarbiya rivojlanish birligi: yaxlitlik shartlari. Ta'lim mazmuni: zamonaviy g'oyalar (kompetensiya, natijalar, integratsiya, amaliyotga yo'naltirilganlik). Ta'lim mazmunini belgilovchi hujjatlar: DTS, o'quv reja, dastur/sillabus. Ta'lim tamoyillari va didaktik loyihalash. Ta'lim metodlari va metodlar tasnifi; o'qitish strategiyalari. O'qitish vositalari: an'anaviy va raqamli; axborot texnologiyalari (LMS, platformalar, multimedia). Ta'lim texnologiyalari: an'anaviy va innovatsion yondashuvlar. Ta'lim turlari va tashkiliy shakllar. Masofaviy/aralash ta'lim: didaktik va tashkiliy xususiyatlar. Innovatsion ta'lim muhiti: interfaollik, moslashuvchanlik, inklyuzivlik, raqamli resurslar. Ta'lim olganlikni

tashxis etish: nazorat va hisobga olish, baholash tamoyillari. O'quv natijalarini baholash mezonlari: an'anaviy va kriterial baholash. Ta'limni jadallashtirish va shaxs rivojlanishi dinamikasi.

V. "Yangi O'zbekiston" pedagogik ta'limoti

Ta'lim-tarbiya siyosatining me'yoriy-huquqiy asoslari: Konstitutsiya, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmonlari, VM qarorlari. Strategik rivojlanish hujjatlari: Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasi doirasida ta'limni modernizatsiya qilish. Uchinchi Renessans g'oyasi va ta'limning jamiyat taraqqiyotidagi hal qiluvchi o'rni. "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" va oliy ta'limni yangilash yo'nalishlari. Oliy ta'limni modernizatsiya qilish: qamrovni kengaytirish, raqobatbardoshlik, natijaga yo'naltirilgan o'quv jarayoni. Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar: joriy etish shartlari va samaradorlik. Xalqaro hamkorlik va akademik mobillik; ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash. Ta'lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi: amaliyot, dual elementlar, mehnat bozori bilan uyg'unlashuv. Kompetensiyaviy yondashuv va DTS. Kredit-modul tizimi: mohiyat, afzalliklar va amaliy mexanizmlar. Sifat kafolati (QA): ichki ta'minlash, akkreditatsiya, reytinglar, baholash tizimi. Inklyuziv ta'lim va teng imkoniyatlar: normativlar, moslashtirish, ijtimoiy adolat. Pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malaka oshirishi va kasbiy rivojlanishi. Ta'lim va tarbiya natijalarini monitoring qilish: samaradorlikni oshirish yo'llari.

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha imtihon savollari

Pedagogikaning nazariy metodologik asoslari

1. Pedagogika fan sifatida: predmeti, obyekti, maqsad-vazifalari.
2. Pedagogikaning nazariy va amaliy ahamiyati.
3. Pedagogikaning funksiyalari: tushuntirish, diagnostika, prognozlash, loyihalash, boshqaruv, innovatsion.
4. Pedagogikaning tayanch atamalari: ta'lim, tarbiya, o'qitish, o'rganish.
5. Pedagogik jarayon va pedagogik tizim: asosiy elementlar.
6. Ta'lim metodi, vositasi va shakli: farqi va bog'liqligi.
7. Pedagogik texnologiya: mohiyati va metodikadan farqi.
8. Jahon ta'lim makonining birligi: globallashtirish sharoitida qadriyatlar uyg'unligi.
9. Kompetensiyaviy yondashuv: mazmuni va amaliy ahamiyati.
10. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: asosiy belgilar.
11. Inklyuziv ta'lim: tamoyillar va amalga oshirish shartlari.
12. "Hayot davomida ta'lim" (lifelong learning) g'oyasi.
13. Ta'lim natijalari va kriterial baholash: nazariy asoslar.
14. Test topshiriqlarining turlari va ularning xarakteri.

15. Raqamli pedagogika: raqamli muhit va raqamli didaktika.
16. Pedagogikaning turdosh fanlar bilan aloqasi.
17. Pedagogika va psixologiyaning dialektik bog'liqligi.
18. Pedagogik antropologiya: mohiyat va ahamiyat.
19. Shaxs rivojlanishi: an'anaviy va innovatsion yondashuvlar farqi.
20. Shaxs rivojlanish omillari: irsiyat, muhit, tarbiya, faoliyat.
21. Motivatsiya va refleksiyaning ta'lim-tarbiyadagi o'rni.
22. O'z-o'zini boshqarish va mustaqil ta'lim mexanizmlari.
23. Tizimli yondashuv: mazmuni va qo'llanishi.
24. Aksiologik yondashuv (qadriyatlar yondashuvi)ni tushuntirish.
25. Pedagogikada sinergetik yondashuv va uning muammolari.
26. Pedagogika fanining metodologik muammolari.
27. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish prinsiplari va qonuniyatlari.
28. Pedagogik jarayonlarni modellashtirish: mohiyati va turlari.
29. Pedagogik tadqiqotlarning yo'nalishlari va natijalari.
30. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi va tadqiqot metodlari.
31. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari: kuzatish, suhbat, anketa, test, kontent-tahlil, eksperiment.
32. Pedagogika yutuqlarini amaliyotga joriy etish va innovatsiyalarni tatbiq etish mexanizmlari.

Pedagogik ta'limotlar tarixi

33. Ta'lim tarixi va pedagogik ta'limotlar tarixi: predmeti, vazifalari, manbalari.
34. Tarixiy-pedagogik jarayon va uning tahlil usullari.
35. Davrlashtirish (periodizatsiya) muammosi va mezonlari.
36. Tarixiy-pedagogik tahlil tamoyillari: tarixiylik, tizimlilik, obyektivlik, kontekstual yondashuv.
37. Eng qadimgi manbalar va ilk ta'lim-tarbiya tajribasi: folklor va tarbiya.
38. Ibtidoiy jamiyatda tarbiya: xususiyatlar va mehnat bilan bog'liqlik.
39. Sug'diyona, Baqtriya, Xorazmda ta'lim-tarbiya taraqqiyoti.
40. "Avesto"da ta'lim-tarbiyaga oid ilk qarashlar va tarbiyaviy g'oyalar.
41. O'rxun-Enasoy bitiklarining ma'rifiy-axloqiy ahamiyati.
42. Birinchi va ikkinchi Renessans davridagi pedagogik ta'limotlarning mazmuni va yo'nalishlari.
43. Movarounnahr va musulmon Sharqi Uyg'onish davrida ta'lim-tarbiya xususiyatlari.
44. Abu Ali Ibn Sino va Abu Rayhon Beruniylarning umumpedagogik hamda didaktik g'oyalari.
45. Abu Nasr Forobiyning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari.
46. Muso al-Xorazmiyning ilm-ma'rifat taraqqiyotidagi o'rni.
47. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining ta'lim-tarbiyadagi o'rni.
48. Kaykovus "Qobusnoma" asarida ma'naviy-axloqiy masalalar.
49. Sa'diy "Guliston" asarida ma'naviy-axloqiy tarbiya g'oyalari.
50. A. Jomiy "Bahoriston" asarida ma'naviy-axloqiy qarashlar.

51. Nosiriddin Tusiy "Axloqi Nosiriy"da maktab tarbiyasi haqidagi qarashlar.
52. Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" asarida ta'limiy-axloqiy fikrlar.
53. Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otit-turk" va xalq pedagogikasi.
54. "Temur tuzuklari"da adolat va adolatparvarlik masalalari.
55. Amir Temurning Movarounnahr ilm-fan taraqqiyotidagi o'rni.
56. Mirzo Ulug'bekning ta'limni isloh qilish sohasidagi qarashlari.
57. Alisher Navoiy ta'limiy-axloqiy qarashlari.
58. Sharq mutafakkirlarida ustoz-shogird munosabatlari g'oyalari.
59. Najmiddin Kubro ma'naviy tarbiyaga oid qarashlari.
60. Aziziddin Nasafiyning "Komil inson" g'oyasi va tarbiyaviy ahamiyati.
61. Naqshbandiya ta'limoti va ta'lim-tarbiyadagi o'rni.
62. Naqshbandiylilikda nafs tarbiyasi va uning bosqichlari.
63. Turkiston davrida ta'lim: chorizm maktab siyosati va oqibatlari.
64. Jadidchilik: yangi usul maktablari g'oyasi va amaliyoti.
65. Gaspirali, Munavvar Qori, Behbudiy, Avloniy, Hamza, Fitrat pedagogik qarashlari.
66. Jadidlarimiz yaratgan darsliklar va ularning xususiyatlari.
67. Jahon pedagogik fikrida Komenskiy "Buyuk didaktika"ning o'rni.

Tarbiya nazariyasi

68. Tarbiya tushunchasi: kelib chiqishi va ijtimoiy-pedagogik talqini.
69. Tarbiyaning madaniyatshunoslik asoslari: qadriyat, an'ana, meros.
70. Tarbiyaning mohiyati, mazmuni, maqsad-vazifalari.
71. O'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash: farqi va misollar.
72. Uzlüksiz tarbiya konsepsiyasi: mazmuni va mexanizmlari.
73. Tarbiya jarayonining tuzilishi va bosqichlari.
74. Tarbiya jarayonidagi qarama-qarshiliklar: misollar bilan izohlang.
75. Tarbiya qonuniyatlari: tarbiya-ta'lim-rivojlanish birligi.
76. Tarbiya tamoyillari: insonparvarlik, tizimlilik, izchillik va b.
77. Talab-hurmat birligi tamoyili va amaliy ko'rinishlari.
78. Jamoa va shaxs uyg'unligi tamoyilini tushuntiring.
79. Tarbiyaviy o'zaro ta'sir va subyektilik yondashuvi.
80. Pedagogik qo'llab-quvvatlash (yordam, maslahat, hamrohlik) texnologiyasi.
81. Tarbiya metodlari: mohiyat va tanlash mezonlari.
82. Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi: ishontirish, ibrat, rag'bat, jazo va b.
83. Hikoya, suhbat, munozara, ma'ruza metodlarining tarbiyadagi o'rni.
84. Tolerantlik tarbiyasi: mazmuni va yo'nalishlari.
85. Ta'lim-tarbiyada gender yondashuvning ahamiyati.
86. Estetik ta'lim-tarbiya: mazmuni, shakl va metodlari.
87. Mehnat tarbiyasi: mazmuni, vazifalari, metodlari, kasbga yo'llash usullari.
88. Shaxs tarbiyasining asosiy yo'nalishlari (bazaviy madaniyat)ni izohlang.
89. Tarbiya jarayonini o'rganish va tashxis: mezonlar va usullar.
90. Oila tarbiyasi: huquqiy-konseptual asoslar va oilaning vazifalari.

O‘qitish nazariyasi

91. O‘qitish jarayoni: mohiyati va tuzilishi.
92. O‘qitish va o‘rganish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi.
93. Bilish faoliyati tuzilishi: motiv–maqsad–harakat–natija–refleksiya.
94. O‘qitish funksiyalari: ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va b.
95. Ta’lim, tarbiya va rivojlanish birligi: yaxlitlik shartlari.
96. Ta’lim mazmuni: o‘quv reja, dastur, darslik va ularning o‘rni.
97. O‘quv reja va o‘quv dasturlariga qo‘yiladigan talablar.
98. DTS, o‘quv reja, dastur/sillabusning mazmunni belgilashdagi roli.
99. Ta’lim metodlari: mohiyati va tavsifi (klassifikatsiya).
100. Evristik o‘qitish metodlari: imkoniyatlari.
101. Ta’limning an’anaviy sinf-dars shakli: afzallik va cheklovlar.
102. Darsning tuzilishi va bosqichlari.
103. Ta’lim samaradorligini oshirish omillari.
104. Ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir etadigan omillar.
105. Ta’lim sifatini nazorat qilish: mazmuni va vazifalari.
106. O‘qitish sifatini nazorat qilish shakllari.
107. Pedagogik diagnostika: predmeti va vazifalari.
108. Pedagogik diagnostikaning metodlari (kuzatish, suhbat, test va b.).
109. Ijtimoiy-pedagogik diagnostika: yo‘nalishlari va metodlari.
110. Xalqaro baholash tizimlari va ularning ta’limni rivojlantirishdagi o‘rni (umumiy).
111. PIRLS xalqaro baholash dasturi mazmunini yoritib bering (umumiy).
112. “4K” kompetensiyalari: tarkibi va ahamiyati.
113. STEAM texnologiyasining pedagoglarni tayyorlashdagi ahamiyati.
114. Raqamli ta’lim vositalari (LMS, platformalar, multimedia)dan foydalanishning didaktik shartlari.

“Yangi O‘zbekiston” pedagogik ta’limoti

115. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevraldagi PQ-901 son “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun mohiyati.
116. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231 son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar” to‘g‘risidagi Qarori mazmun mohiyati.
117. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining mazmun mohiyati.
118. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ta’lim tarbiya va ilm fanning ustuvor yo‘nalishlari.
119. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi: uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlarini rivojlantirish to‘g‘risida.

120. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847 son Farmonining mohiyati.
121. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli farmonida uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishga oid ustuvor vazifalar.
122. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623 sonli qarorining mohiyati.
123. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmonining mazmun mohiyati.
124. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958 son Farmonining mazmun mohiyati.
125. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909 son Qarorining mazmun mohiyati.
126. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2020-yildagi yangi tahriri) mazmun, mohiyati, tarkibiy tuzilishi.
127. 11 yillik o'rta ta'lim konsepsiyasining ijtimoiy pedagogik ahamiyati.
128. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038 son Qarorining mazmun, mohiyati.
129. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi №1059-son Qarori.
130. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim tarbiya va ilm fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF6108-son Farmoni.
131. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2020-yil 25-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni amaliyotga joriy etish samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Qarori.
132. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'lim tarbiyaning qonuniy asoslari.
133. Uchinchi Renessans g'oyasi va ta'limning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida gapiring.
134. Oliy ta'limda kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy-pedagogik jihatlari.
135. Oliy ta'limni modernizatsiya qilish yo'nalishlari (qamrov, sifat, raqobatbardoshlik)ni tushuntiring.

136. Ta'lim–fan–ishlab chiqarish integratsiyasining maqsadi va shakllarini yoritib bering.

137. Kredit-modul tizimining mohiyati va afzalliklarini ayting.

138. Inklyuziv ta'lim va teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha asosiy talablarni izohlang.

Baholash mezoni

Eng yuqori ball – 100 ball.

Saralash ball – 56 ball

56 balldan – 70 ballgacha (70 – 55%) – qoniqarli

71 balldan – 85 ballgacha (71 – 85,9%) – yaxshi

86 balldan – 100 ballgacha (86 – 100%) – a'lo

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir) : [Elektron resurs]. — Toshkent, 2023. — URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/6600413>
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni: O'RQ-637, 23.09.2020 [Elektron resurs]. — URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/5013007>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni : PF-5847, 08.10.2019— URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/5013007>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori : PQ-2909, 20.04.2017 [Elektron resurs]. — URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/3171590>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori : PQ-4623, 27.02.2020 [Elektron resurs]. — URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/4752546>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni : PF-6108, 06.11.2020 [Elektron resurs]. — URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/5090366>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni : PF-60, 28.02.2022 [Elektron resurs]. — URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/5841063>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni : O'RQ-901, 01.02.2024 [Elektron resurs]. — URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/6558033>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori : PQ-231, 21.06.2024 [Elektron resurs]. — URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/>

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori : PQ-232, 21.06.2024 [Elektron resurs]. — URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni : PF-232, 28.04.2025 [Elektron resurs]. — URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/>
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori:1059-son,31.12.2019[Elektronresurs].—RL:<https://www.lex.uz/uz/docs/>
13. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. — 488 b.
14. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. Toshkent, O'zbekiston, 2016 yil, 56 bet.
15. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta'minlashyurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 48 bet.
16. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 07.02.2017 yil. // №PF4947-sonli Farmoni.
17. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, O'zbekiston 2017-yil, 488 bet.
18. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent 2023 y.
19. Fitrat A. Tanlangan asarlar. — Toshkent «Ma'naviyat» nashriyoti. 2006-yil ISBN: 978-9943-04-111-0
20. Forobiy A. Fozil odamlar shahri (ta'lim-tarbiya qarashlari). — Toshkent : 2021 nashriyot: Yangi Asr Avlodi
21. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. — Toshkent. ISBN-978-9943-05-154-6; Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007-y.
22. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. — Toshkent : Yoshlar nashriyot uyi 2018-y.
23. Koshifiy H. V. Axloqiy asarlar (ta'lim-tarbiya masalalari). — Toshkent : ISBN 978-9943-07-138-4 "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.
24. Vygotskiy L. S. Tafakkur va nutq. — Moskva: Labirint, 2005.
25. R. J. Ishmuhamedov, U. SH. Begimkulov Kasbiy rivojlantirish tizim: mahorat, metodika, tajriba. 2025 y
26. U. Sh. Begimkulov "Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari" — monografiya, Toshkent: "Fan", 2007 y.
27. Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna, Askarov Abror Davlatmirzayevich Umumiy pedagogika. Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari bakalavrlari uchun o'quv qo'llanma. "Zuxra baraka biznes" MChJ bosmaxonasida chop etildi. 2019.-359 b.
28. Abdullaeva. M, Asqarova O'. M. Xayitboev. Ta'lim tarixi -T. Muharrir 2014.
29. Egamberdieva N. M. Ijtimoiy pedagogika. — T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

30. Ibragimov X. I., Abdullaeva Sh. A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
31. Ishmuhammedov R. J va boshqalar. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T.: Istedod jamg'armasi -2010 y.
32. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar / – T.: Fan va texnologiya, 2010.
33. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. – T.: Fan, 2001.
34. Madiyarova S. A. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: "Iqtisodmoliya" 2009 y.
35. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tibkitob, 2010.
36. Mavlonova R., Toraeva O., Xoliqberdieva K. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2001.
37. Mavlonova R., Rahmonqulova N va boshqalar. Umumiy pedagogika. -T.: "Fan va texnologiya", 2018, 528 bet.
38. Mutalipova M. J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.
39. Mutalipova M. J., Xodjaev B. X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. -T.: TDPU, 2015.
40. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2001.
41. Salayeva. M. S. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent Nodirabegim. 2021 y. 592 b.

Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti

1. <https://www.lex.uz>
2. <https://lib.bimm.uz/home>
3. <https://unesdoc.unesco.org/>
4. www.oecd.org/education/
5. <https://www.edu.uz/>
6. <https://gov.uz/>
7. <https://library.ziyounet.uz/>

THE
LIBRARY OF THE
MUSEUM OF NATURAL HISTORY

NEW YORK
1887